

INGLIZ TILINI O'QITISHDA RAQAMLI PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA INTERAKTIV PLATFORMALAR ORQALI XXI ASR KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.

Nazarova Nargiza

*Urganch Davlat Pedagogika Instituti Xorijiy til va adabiyoti
(Ingliz tili) yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada bugungi globallashuv davrda ingliz tili o'rganish jarayonida raqamli yondashuv hamda u asosida interaktiv metod va platformalar orqali XX asr kompetensiyasini rivojlantirish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Globallashuv, metod, interaktiv, ingliz tili, dars, ta'lim, jartayon.*

METHODOLOGY FOR DEVELOPING 21ST CENTURY COMPETENCES THROUGH INTERACTIVE PLATFORMS BASED ON DIGITAL PEDAGOGICAL APPROACHES IN ENGLISH TEACHING

Abstract: *This scientific article discusses the development of 20th century competences through a digital approach in the process of learning English in today's globalization era and interactive methods and platforms.*

Keywords: *Globalization, method, interactive, English, lesson, education, environment.*

МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ XXI ВЕКА С ПОМОЩЬЮ ИНТЕРАКТИВНЫХ ПЛАТФОРМ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: *В данной научной статье рассматривается развитие компетенций XX века с помощью цифрового подхода в процессе изучения английского языка в современную эпоху глобализации, а также интерактивных методов и платформ.*

Ключевые слова: *Глобализация, метод, интерактивный, английский, урок, образование, среда.*

Bugungi globallashuv davrida ingliz tilini o'rganish nafaqat alohida bir fan sifatida, balki o'quvchilarning kelajakda raqobatbardosh mutaxassis bo'lishlari uchun zarur vosita sifatida qaralmoqda.

Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili darslarini samarali va interaktiv tashkil etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali an'anaviy o'qitish shakllari yangicha ko'rinish kasb etib, o'quvchilarning darsga bo'lgan

qiziqishini oshirish, mustaqil izlanish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Raqamli ta'lim vositalaridan to'g'ri foydalanish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va eng asosiysi, ingliz tilini o'rganish jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga yordam beradi.

Jumladan, o'yinlashtirilgan dars, mobil til platformasi, raqamli sinf ekotizimi, mikroo'qitish texnologiyasi, virtual til laboratoriyasi, moslashuvchan til o'qitish, interaktiv test yaratgich kabi innovatsion vositalardan foydalanish o'quv jarayonida interaktivlikni ta'minlab, dars sifatini oshiradi.

Ayni paytda respublikamizda raqamli ta'limni rivojlantirish bo'yicha bir qator davlat dasturlari va loyihalar amalga oshirilmoqda. Ammo ingliz tili darslarini interaktiv tarzda tashkil etishda raqamli ta'lim vositalaridan to'liq va maqsadli foydalanish o'qituvchidan zamonaviy yondashuv, mos metodikani qo'llash hamda texnik imkoniyatlardan samarali foydalanishni talab etadi. Shu jihatdan, ushbu maqolada ingliz tili darslarini zamonaviy raqamli vositalar yordamida interaktiv tashkil etishning nazariy asoslari, metodik yondashuvlari va amaliy tajribalar tahlil etiladi. Bu esa o'quvchilarni zamonaviy raqamli muhitga moslashtirish bilan birga, ularning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ingliz tilini o'qitishda raqamli pedagogik yondashuvlar asosida interaktiv platformalar orqali XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Bugungi globallashtirish sharoitida o'quvchilar nafaqat til bilimlarini, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, samarali muloqotga kirisha olish, hamkorlikda ishlash, kreativlik va raqamli savodxonlik kabi universal ko'nikmalarni ham egallashi zarur bo'lib qolmoqda. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda ingliz tili o'qitish jarayoni an'anaviy shakldan zamonaviy interaktiv muhitga ko'chib o'tdi.

Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta'lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi.

Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishi xammamizga ma'lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'lim olishning bir turi deb olsak bo'ladi.

Yangi axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ularning mamlakatimizda joriy etilishi zamonaviy bola shaxsini shakllantirishda o'z izini qoldirdi. Bugungi kunda an'anaviy "ustoz-shogird-darslik" sxemasiga yangi bo'lgan – kompyuter kiritilmoqda, kompyuter ta'limi esa bugungi kun ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib

bormoqda. Ta'limni axborotlashtirishning asosiy qismlaridan biri o'quv fanlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi.

Ingliz tilini o'rgatish jarayonida interaktiv usullardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida e'tirof etiladi. Avvalo, bu metodlar o'quvchilarni darsning markaziy subyekti sifatida faol ishtirok etishga undaydi, natijada ularning tilga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgaradi va darslar jonli, harakatchan, qiziqarli muhitda kechadi. Shuningdek, interaktiv faoliyatlar o'quvchilar o'rtasidagi kommunikativ aloqalarni faollashtirib, ularning og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Yana bir muhim jihati shundaki, bunday metodlar topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilarni o'zaro tajriba almashishga, bir-biridan o'rganishga undaydi, bu esa shaxslararo muloqot va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, rolli o'yinlar, munozaralar, fikrlar almashinuvi va bahs-munozaralar orqali talabalarda fikrni asoslash mantiqiy dalillar keltirish, tanqidiy fikrlash singari yuqori darajadagi tafakkur faoliyatlari shakllanadi.

Tadqiqot natijalari ingliz tili darslarini raqamli ta'lim vositalari yordamida interaktiv tashkil etish o'quvchilar o'rtasida tilni o'zlashtirish samaradorligini oshirishda ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Eksperiment davomida o'quvchilar ikki guruhga bo'lingan holda kuzatildi: tajriba guruhi va nazorat guruhi. Nazorat guruhi an'anaviy metodlar asosida o'qitildi, tajriba guruhi esa o'yinlashgan dars, mobil til platformasi, raqamli sinf ekotizimi, virtual til laboratoriyasi, moslashuvchan til o'qitish, mikroo'qitish texnologiyasi va interaktiv test yaratgich kabi vositalar bilan ta'minlandi. O'quv yilining boshida va tajriba yakunida har ikki guruh o'quvchilarining ingliz tili bilim darajasi va interaktiv vositalarni o'zlashtirish ko'nikmalari baholandi. Tajriba guruhi o'quvchilarining 80 foizi yangi raqamli vositalardan foydalanishni qiziqarli va samarali deb baholadi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, o'yinlashgan topshiriqlar va mobil til platformalari o'quvchilarda mustaqil ishlash va darsga tayyorgarlik ko'rish motivatsiyasini oshiradi. Shuningdek, interaktiv test yaratgichlar va virtual laboratoriyalar orqali topshiriqlarni real vaqt rejimida bajarish o'quvchilarda aniqlik, tezkor fikrlash va o'z bahosini tezda olish imkoniyatini yaratdi. Mikroo'qitish texnologiyasi asosida dars materiallarini kichik bo'laklarga bo'lish esa murakkab mavzularni yengil o'zlashtirishga yordam berdi.

Ingliz tilini o'rganishda turli xil onlayn platformalarni qo'llash ta'lim sifatini yaxshilash bilan birgalikda o'rganish jarayonini osonlashtiradi hamda qisqa va belgilangan fursat ichida ma'lum bir bilim hamda ko'nikmalarni egallash uchun zamin yaratadi. Bugungi kunda til o'rganuvchilar va o'rgatuvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan onlayn platformalar, ya'ni Zoom, Duolingo, BBC Learning va Moodle platformalarini misol tariqasida ko'rsatadigan bo'lsak, o'quvchilar bir vaqtning o'zida bu programmalar orqali ingliz tilidagi turli xil mahoratlarni turli xil bosqichdan boshlab o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar [1]. Xususan, lug'at boyligini oshirish, kommunikatsion mahoratni o'stirish imkoniyatlari yuzaga keladi. Jumladan

padagoglarga ham darslarni yanada samarali tashkil etish imkoniyati paydo bo'ladi. Masalan, Moodle platformasini qo'llash orqali o'qituvchi o'quvchilarning yozma, o'qib tushunish hamda eshitish mahoratini o'stirishga yordam bersa, aynan shu jarayonda yuzaga keladigan savollar hamda o'quv faoliyatiga doir bo'lgan masalalarni Zoom platformasi orqali, o'quvchilarga boshqalar bilan muloqot qilish, savollarni birgalikda tahlil qilish, va eng muhimi so'f og'zaki nutqni shakllantirish imkoniyati beriladi. Bu kabi audio ya'ni autentik vositalar orqali o'quvchilar tilni real hayotda qo'llay oladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar butun ta'lim tizimida, shu jumladan til o'rgatish jarayonida ham paradigmani o'zgartirmoqda. U nafaqat bilim yetkazib beruvchi, balki axborotning hammuallifi, maslahatchisi va baxolovchisi hamdir.

Ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki interaktiv metodlardan va onlayn platformalardan foydalangan holda o'tilgan ingliz tili darslarida o'quvchilarning eslab qolish darajasi 70 foizgacha oshadi bu an'anaviy dars uslublariga nisbatan yuqori ko'rsatkich hisoblanadi shuningdek o'quvchilarning nutq faolligi oshadi ularning lug'at boyligi kengayadi va grammatik xatolar kamayadi bu esa interaktiv metodlarning samaradorligini ilmiy asosda isbotlaydi.

Ingliz tili o'qitishda interaktiv metodlarni samarali qo'llash uchun o'qituvchi o'z faoliyatida quyidagi jihatlariga e'tibor qaratishi lozim birinchidan o'quvchilarni darajasini hisobga olib mos metodni tanlash ikkinchidan har bir metodni dars mavzusiga moslashtirish uchinchidan baholash mezonlarini aniq belgilash to'rtinchidan o'quvchilarni faol ishtirokini ta'minlash beshinchidan interfaol texnologiyalardan foydalanish.

Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim jarayonini takomillashtirishning eng samarali yo'llaridan biridir bu metodlar orqali o'quvchilar tilni o'rganish jarayonida nafaqat bilim balki kommunikativ madaniyat ham hosil qiladilar shuningdek interaktiv metodlar o'quvchini faol fikrlashga mustaqil qaror qabul qilishga ijodiy yondashuvni rivojlantirishga undaydi bugungi kunda ingliz tili o'qituvchisi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallagan innovatsion fikrlaydigan shaxs bo'lishi kerak chunki interaktiv metodlar faqatgina o'qituvchining mahorati va ijodkorligiga tayanadi. Shunday qilib ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan samarali foydalanish natijasida o'quvchilarning bilim sifati oshadi ularning nutqiy va kommunikativ kompetensiyasi rivojlanadi mustaqil fikrlash ijodiy yondashuv va hamkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi bu esa nafaqat ta'limda balki kelajak kasbiy faoliyatda ham muvaffaqiyat garovi bo'ladi.

Interaktiv metodik yondashuv nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarda sog'lom raqobat muhitini yaratadi, o'z fikrini erkin ifodalash, tashabbus ko'rsatish kabi fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, har xil darajadagi o'quvchilarga moslashtirilgan topshiriqlar orqali differensial yondashuvga ham zamin yaratiladi. Bugungi kunda zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan interaktiv usullar ta'limda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Masalan, Quizizz, Wordwall, Kahoot, Mentimeter, Liveworksheets kabi platformalar yordamida

til o'rganish jarayoni gamifikatsiya asosida tashkil qilinmoqda, bu esa o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ammo interaktiv metodlardan samarali foydalanish uchun o'qituvchining metodik salohiyati, darsga puxta tayyorgarligi, rejalashtirish ko'nikmasi, tashkiliy qobiliyati yuqori bo'lishi zarur. Har bir o'yin yoki metod topshiriqning maqsadiga mos bo'lishi, dars mazmuni bilan integratsiyalashgan holda tanlanishi kerak. Shuningdek, guruhdagi o'quvchilar soni, ularning til darajasi, psixologik holati ham e'tiborga olinishi lozim. Yuqori samaraga erishish uchun interaktiv metodlar doimiy tatbiq qilinishi, o'quvchilarda o'zaro muloqot, tilga bo'lgan ishonch, faol pozitsiyani shakllantirishi kerak.

XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni ingliz tilini o'qitishda muhim o'rin tutadi. O'quvchilar onlayn materiallarni tahlil qilish, ishonchli ma'lumot manbalarini ajratish, media kontentni tanqidiy baholash orqali axborot va media savodxonlik ko'nikmalarini shakllantiradi. Google Docs yoki Canva kabi vositalarda taqdimotlar tayyorlash, virtual loyihalar ustida ishlash esa kreativlikni rivojlantiradi. Video muloqot vositalari o'quvchilarning real kommunikativ vaziyatlarda ishtirok etishiga imkon yaratadi, bu esa kommunikativ kompetensiyani kuchaytiradi. Interaktiv metodlar orqali tuzilgan darslar o'quvchini passiv tinglovchiga emas, balki faol ishtirokchiga aylantiradi. O'quvchi o'z fikrini erkin ifodalashga, muammoni birgalikda hal qilishga, mustaqil izlanishga, raqamli vositalardan ongli foydalanishga o'rganadi. Eng muhimi, o'quv jarayoni zamonaviy yoshlar psixologiyasiga mos ravishda qiziqarli, dinamik va mazmunli shaklga keladi. Shu tariqa, raqamli pedagogik yondashuvlar asosida interaktiv platformalardan foydalanish nafaqat ingliz tilini o'rgatishda samaradorlikni oshiradi, balki o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishning eng qulay va zamonaviy metodikasini yaratadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin. Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli vositalarni kompleks qo'llash o'quvchilarning til bilimlarini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. O'quvchilar o'rtasida mustaqil ishlash, o'z bahosini aniqlash, onlayn test topshirish va virtual laboratoriyalarda til amaliyoti o'tkazish imkoniyatlari ularning motivatsiyasini oshiradi. Raqamli ta'lim vositalarini joriy etishda o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar, metodik qo'llanmalar va texnik ta'lim kurslarini tashkil etish zarur. Internet tarmog'i va texnik baza imkoniyatlarini yanada kengaytirish dars samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli vositalardan foydalanish bilan bog'liq yangi metodik yondashuvlar umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili o'qitish sifatini yangi bosqichga olib chiqadi va o'quvchilarning zamonaviy talablar asosida til kompetensiyasini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmadaliyeva N. Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli. – Toshkent: TDPU, 2021.

2. Ibragimova, M. "Ingliz tili o'qitishda zamonaviy texnologiyalar va raqamli resurslarning ahamiyati." O'zbekiston ta'limi jurnali, 2(4), 23-30. 2018.
3. Nuriddinova N. Ingliz tilini o'qitishda raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi. Conference of Modern Science & Pedagogy, 1-jild, 1-son. – Washington, AQSH. – B. 263–265
4. Ziyaboyeva, S., & Ibrokhimova, M. (2022). "Interactive Methods in Teaching English in Higher Educational Institutions". European Journal of Humanities and Educational Advancements, Vol. 3 No. 12. Neliti
5. Karimova, M.Z. Ingliz tili o'qitish metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2021. — 180 b.
6. Kulimova, M. (2023). "Importance of Interactive Methods in Teaching English". American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education, Vol. 1 No. 9. Green Journal